KUCH ADOLATDADIR Amir TEMUR

ADOLAT MEZONI

GAZETA 2010-YIL 3-MAYDAN CHIQA BOSHLAGAN // HUQUQIY-IJTIMOIY VA MA'NAVIY-MA'RIFIY GAZETA // ISSN 2181 - 483X WWW.ANDIJONSADOSI.UZ // № 31 (561) 2025-YIL, 9-AVGUST

«KORRUPSIYASIZ JAMIYAT - TARAQQIYOT KAFOLATI

O‘zbekiston Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan «Adolat mezoni» gazetasining «Korrupsiyasiz jamiyat - taraqqiyot kafolati» loyihasi doirasidagi sahifa

FOTOKO‘RGAZMAGA KELGANLARGA LOYIHA DOIRASIDA CHOP ETILGAN GAZETALAR TARQATILDI

O‘zbekiston Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan “Adolat mezoni” gazetasining “Korrupsiyasiz jamiyat – taraqqiyot kafolati” nomli loyiha doirasida maxsus sahifa chop etilgan gazetalardan aholi va ayniqsa, yoshlarga bepul tarqatilishi ko‘zda tutilgan edi. O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi Andijon viloyat bo‘limi va O‘zbekiston badiiy akademiyasi O‘zbekiston badiiy ijodkorlar uyushmasi Andijon viloyat bo‘limi hamkorligida Mustaqilligimizning 34 yilligi munosabati bilan «Yangi O‘zbekiston fotojurnalistlar nigohida» mavzusida fotoko‘rgazmada 2025-yil 5-avgust kuni chop etilgan sonidan aholi va yoshlarga bepul tarqatildi.

Z.QODIROV,
«Adolat mezoni» muxbiri.

(Sahifani davomi 2-betda).









Ogohlik - davr talabi

OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH DOIMIY NAZORATDA

Andijon viloyati hududlarida muntazam ravishda odamlar va hayvonlarning sog‘ligi uchun xavf tug‘diradigan kasalliklar tarqalishini oldini olish, epizootik va epidemik vaziyatni barqarorlashtirish borasida, Andijon viloyati Ichki ishlar boshqarmasi Jamoat tartibini saqlash boshqarmasi Karantin tadbirlarini ta’minlash guruhi, Shahrixon tumani veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi hamda boshqa mutasaddi idora xodimlari bilan hamkorlikda keng qamrovli profilaktik tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Tadbir davomida Shahrixon tumani Qalacha MFYda epizootik vaziyatni barqarorlashtirish maqsadida chorva hayvonlarini yuqumli kasalliklarga qarshi emlash va yuqumli kasalliklarni barvaqt oldini olish choralari ko‘rilmoqda.

Xususan, Asaka tumanida faoliyat yuritayotgan «Asaka» (oziq-ovqat) MCHJ dehqon bozorida ham aholi dasturxoniga sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berilishini ta’minlash, oziq-ovqat xavfsizligini nazorat qilish, epizootik va epidemik vaziyatni barqarorligini ta’minlash asosiy e’tiborni go‘sht va go‘sht, sut va sut mahsulotlariga qaratish maqsadida keng qamrovli profilaktik tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

Sardorbek SHERMATOV,
Andijon viloyati IIB JXX JTSB
Karantin tadbirlarini ta’minlash
guruhi xodimi, safdor.



Mutaxassis maslahati

KO‘SAK QURTIGA QARSHI BIOLOGIK KURASHNI SAMARADORLIGI

G‘o‘za tunlami, ko‘sak qurti (S1opyoyea o§o1eTa G‘. yoki NeIo.1.18 aptp§ega N.) - tunlamlar oilasiga mansub kapalak. Paxta ekiladigan mamlakatlarda tarqalgan. G‘o‘za tunlamining qurti 120 dan ortiq o‘simlik turini zararlaydi, ayniqsa, Tojikiston, O‘zbekiston va Ozarbayjonda katta zarar yetkazadi. Qanotlari yoyilganda 30-40 mm; oldingi qanoti kulrang sariq, buyraksimon, yumaloq dog‘li, orqa qanoti sarg‘imtirroq, qo‘ng‘ir hoshiya-li, o‘rtasida to‘q rangli oysimon dog‘lari bor. Erkagi urg‘ochisiga nisbatan ochiqroq rangda. Tuxumi och sarg‘ish, o‘ziga xos radial "qobirg‘alari" bor. Qurtining rangi och yashildan to qiz-qish-qo‘ng‘irgacha, uzunligi 35-40 mm; boshi sariq, ko‘krak qalqoni marmarsimon naqshli. Tanasi bo‘ylab uchta keng yo‘l o‘tadi, qorni oqish. G‘umbagi qizg‘ish-jigarrang, uzunligi 15-20 mm. G‘o‘za tunlamining g‘umbagi tuproqda 10-15 sm. chuqurlikda qishlaydi. Havo harorati o‘rtacha 18-20° bo‘lganda g‘umbakdan kapalaklar yoppasiga uchib chiqa boshlaydi. O‘rta Osiyoda birinchi avlod kapalaklarining uchib chiqishi 1-1,5 oy (aprel-may) davom etadi. G‘o‘za tunlami g‘o‘zaga shonalash boshlanganda o‘ta boshlaydi, ungacha birinchi bo‘g‘in pomidor, no‘xat, makkajo‘xori va begona o‘tlar (bangidevona, g‘o‘zor) da rivojlanadi. Kapalaklar o‘simlik bargi va hosil organlariga 1-3 tadan tuxum qo‘yadi. Bitta urg‘ochi kapalak o‘rtacha 500, ba’zan esa 1000 gacha tuxum qo‘yishi mumkin. Yoz oylarida bir avlodning rivojlanishi uchun 25-35 kun kifoya. O‘rta Osiyoda 3-4 avlod beradi. Yosh barglarni, shona va g‘unchalarni, yosh ko‘saklarni yeydi (ikkinchi nomi ham shundan). Bitta qurt 10-24 hosil elementiga zarar yetkazishi mumkin.

Kurash choralari: Agrotexnik kurash tadbirlaridan chilpish davrida chilpilgan qismni yig‘ishtirib, daladan tashqariga chiqarib tashlash, zararlangan makkajo‘xorilarni silos uchun sut - dumbul davri boshlaridayoq, ya’ni qurtlar g‘umbaklanish uchun tuproqqa tushmasidan oldinroq o‘rib olish. Biologik kurash tadbirlari: tuxumlariga qarshi 5-6 kun oralatib uch marta 60+80+60 ming donaga hisobida trixogramma tarqatish; qurtlariga qarshi 7-8 kun oralatib gabrobrakon xo‘jayin-parazitni 1:20; 1:10; 1:5 nisbatida qo‘llashi kerak.

Zuhriddin ONARBOYEV,
Humoyun OTAJONOV,
“Mingtepa” OKCHM davlat
karantin inspektorlari.

«KORRUPSIYASIZ JAMIYAT – TARAQQIYOT KAFOLATI

O‘zbekiston Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan «Adolat mezoni» gazetasining «Korrupsiyasiz jamiyat - taraqqiyot kafolati» loyihasi doirasidagi sahifa



Korrupsiya botqog‘iga botgan amaldorlar jamiyat taraqqiyotiga g‘ov bo‘lib, umri xalqqa xiyonat qilish, yosh avlod ongini zaharlash bilan o‘tishini endi keng jamoatchilik yaxshi tushunadi. Bu illatga qarshi kurash – toza vijdonli, oriyatli ziyolilarning qalb amriga aylanmog‘i lozim.

Talabalar dunyoqarashini munosib ravishda shakllantirish, ularning huquqiy madaniyatini oshirib borish qanchalik muhim ekanligini alohida ta’kidladi. Buning uchun eng avvalo O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunini teran nigoh bilan o‘qib-o‘rganish zarur.

Jamiyatda, ayniqsa, yosh avlod kamolga yetadigan oliy ta’lim muassasalarida korrupsiya balosiga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmasligi, bu illatni tag-tomiri bilan yo‘qotish zarur.

Aytish joizki, korrupsiyaga qarshi kurash borasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish, poraxo‘rlik, tamagirlik kabi huquqbuzarliklarni aniqlash va ularga minba’d chek qo‘yish, bunday jinoyatlarga qarshi jazo muqarrarligini har bir shaxs bilishi zarur. Korrupsiya balosining naqadar mudhish illat ekanini tushungan, uni ongli ravishda idrok etgan odam bu jinoyatga qo‘l urmaydi.

Bugungi kunda har bir davlatda korrupsiyaga qarshi kurash davom etmoqda. Har bir davlat va jamiyat korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘lini o‘zi tanlaydi, aniqrog‘i, qanday yo‘l to‘g‘ri ekanini hayot ko‘rsatadi. Qonunda korrupsiyaga qarshi kurashni keng qamrovda olib borish choralari ko‘zda tutilgani, bu borada har bir masalaga alohida e’tibor qaratilgani bejiz emas.

Mutaxassislar fikricha, korrupsiya so‘zi “sotish” va “sotilish” degan ma’nolarni anglatar ekan. Korrupsiyaga aloqador odam qonunni buzishdan tashqari, o‘zining kimligini, e’tiqodi, ma’naviyati qay darajada ekanini oshkor qiladi. Bunday odam nafaqat moliyaviy ziyon-zahmat yetkazadi, balki davlatni, demokratiyani behurmat qilib, obro‘sini to‘kadi, unga non-tuz berib katta qilgan, ilmu hunar, obro‘ va mansab bergan el-yurtning yuziga oyoq qo‘yadi. Oliy o‘quv yurtida talabadan yo uning ota-onasidan pora olgan, tamagirlik qilgan dekan yo boshqa mansabdor shaxs uchun iymon, vijdon, insoniylik degan tuyg‘ular bo‘lmaydi. Ular harom-harish yo‘l bilan topganlarini oilasida o‘z farzandlariga harom luqma yegizayotganini tushunmaydi. Bunday oilada o‘sgan o‘g‘il-qizlar ertaga undan battar ochofat, yulg‘ich, poraxo‘r bo‘lib o‘sadi va bir kun albatta qopqonga tushib, umri panjara ortida o‘tadi. Mana shu haqiqatni oliy o‘quv yurtlaridagi har bir mansabdor shaxs yaxshi bilib olishi zarur. U bugun qilayotgan qing‘irliklarimni hech kim bilmaydi, sezmaydi, deb o‘ylaydi. Vaholanki, bugun odamlarning ko‘zi ochilmoqda. Mansabdor shaxs shunaqa qing‘irliklar qilayotganini atrofidagilar yaxshi bilishadi. Oriyatli, vijdonli ziyolilar ular haqda tegishli idoralarga xabar berib qo‘yishni o‘zlarining vijdoniy burchi, pokiza yashashga intilgan xalq oldidagi qarzi deb bilmoqdalar. Shunga yarasha oliy o‘quv yurtlari ham asta-sekin tozalanmoqda!

Korrupsiya balosidan qutulish, islohotlarni uning changalidan qutqarish sharafli burchimiz ekanligini hamma birdek tushunmog‘i shart. Aks holda, o‘ziga tegishli xulosa chiqarmay, poraxo‘rlik va tamagirlikdan tiyila olmayotgan shaxslar tortilishi muqarrar!

Oliy o‘quv yurtlarida korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi huquqiy ta’lim va tarbiyani kuchaytirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. To‘g‘ri ishlab, halol yashash saodatini yoshlikdan o‘rgangan odamning umri halovatda bo‘ladi. Adolatsizlik, qonunga hurmatsizlik, kasbu amalga, ishonchga xiyonat qilib bo‘lmasligini o‘qib-uqqan, poraxo‘rlik va korrupsiyaga, suiiste’molchilikka qarshi o‘zida immunitet hosil qilgan yoshlar kelajakda jur’atli, vijdonli inson bo‘lib yetishadi. Halol mehnat bilan topilmagan boylik totli bo‘lmasligini, hech kimga buyurmasligini, yaxshilik emas, yomonlik va kulfat keltirishini tushunadi. Tanish-bilishchilikdan



jazoga davlat va jamiyat manfaatlariga ziyon yetmasligi, qonunlarga, insonning qadr-qimmatiga raxna solinmasligi kerak. O‘zining g‘arazli maqsadi uchun har qanday tubanlikdan tap tortmaydigan mas’ul shaxs nafaqat oliy o‘quv dargohiga, shu bilan bir qatorda butun jamiyatga ziyon yetkazadi. Rahbar hammaga o‘rnak bo‘lib, halol ishlab, fidoyilik ko‘rsatish o‘rniga, kishi bilmas poraxo‘rlik qilsa, yosh kadrlar undan nimani o‘rganadi? Qanaqa o‘rnak oladi?

Darhaqiqat, har qanday vaziyatda ham halol odam hayotda g‘olib bo‘lib, baxtli-saodatli yashaydi. Bugun butun jamiyatimiz ana shunday pokiza hayotga intilmoqda.

To‘lqin ESHBEK,
O‘zMU dotsenti.

Sizning fikringiz

YOSHLAR QACHON KORRUPSIYAGA MUROSASIZ BO‘LADI?

Mavzu yuzasidan berilgan savolga Korrupsiyaga qarshi kurash viloyat hududiy komissiyasi a’zosi Saminjon XUSANOV javob berdi:



- Halollik inson ma’naviy qiyofasidagi eng muhim fazilatlardan biri. Ertamiz kelajagi bo‘lgan yoshlarda “halollik vaksinasini” shakllantirish, yoshlarning korrupsiyaga qarshi faolligini qanday oshirish mumkin?

Jamiyat hayotining ochiq va shaffof bo‘lishi korrupsiyaga barham beradi, islohotlar natijadorligini ta’minlaydi. Shu o‘rinda so‘nggi yillarda mamlakatimizda ayni sohada amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar aytib o‘tish joiz.

So‘nggi yillarda ushbu illatga qarshi kurashish borasida qonun hujjatlari qabul qilindi, ularning ijrosi yuzasidan keng ko‘lamli ishlar qilinmoqda.

Korrupsiyaning oldini olishda jamoatchilik nazorati muhimligi, ayniqsa bu jarayonda yoshlarning faolligini oshirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Buning uchun dastavval yoshlarga korrupsiya va uning kelib chiqish sabablari, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik, korrupsiyaviy xatti-harakatlar uchun javobgarlik turlari hamda ushbu illatga qarshi kurashishda mamlakatimizda qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlarining mazmun-mohiyati yetkazish kerak deb hisoblayman.

Shu bilan birga, yoshlarni ushbu illatdan himoya qilish va yoshlarda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish borasida olib borilayotgan ishlardan yoshlarni ko‘ngli to‘lyaptimi? Mana shu jihatlarga e’tibor qaratsak, yoshlar ham korrupsion holatlarga befarq bo‘lmaydilar.

LUG‘AT

KORRUPSIYA — *shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish.*

KORRUPSIYAGA OID HUQUQBUZARLIK — *korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish.*

(“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun 3-moddasi).

BIZDA VRACH BO‘LA OLASANMI?



Aziz NESIN

Bizda vrachlar yetishmay turgan bir paytda ayrimlari katta pul ilinjida Yevropa va Amerikaga ketib qolishmoqda. O‘zimizdagi ba’zi aqli noqis kimsalar xorijda o‘qib yurtiga qaytgan yosh vrachlarni ish boshlashlaridan oldin imtihon qilib ko‘rishni o‘ylab topishibdi. — Siz nima uchun keldingiz?- deb so‘raydi keksa, tajribali vrach. — Ishlash, odamlarni davolash uchun keluvdim. — Hmm, tushunarli. Xo‘sh, yana nima ish qo‘lingizdan keladi? — Yana…deganingiz nimasi? — Nimasi deganingiz nima? Masalan, aytmoqchiydimki, musiqa bastalay olasizmi? She’r yozish, kinoda rol o‘ynash, pudrat asosida ishlash, biznes bilan shug‘ullanish qo‘lingizdan keladimi? Milliy majlisga deputat yoki vazir bo‘la olasizmi? Siyosatga tobingiz qalay? Albatta, siz biron narsa bilan shug‘ullansangiz kerak. — Yo‘q, men faqat davolayman…Men kambag‘al oiladan chiqqanman, maoshga qanoat qilolmayman, shu bois xususiy davolash bilan shug‘ullanmoqchiman. — Xo-xo-xo…Dotsent, professor unvonlarisiz xususiy davolash bilan shug‘ullanmoqchi emish! Xo‘sh, mijozlarni sizga kim yuborib turadi? Kim? — Kasallarni demoqchisiz-da? — Ha, mijozlarni… — Hoynahoy, kasallar o‘zlari kelar… — Qanaqasiga kasallar o‘zlari kelarkan? — Og‘irroq bemorlarni kimlardir olib kelar… — Yaxshi, unda ayting-chi, o‘sha kasalni olib keladigan odamni nima deyishadi? — Men bu odamning ismini bilmayman, u hali bemorni olib kelgani yo‘q. — Men uning ismini so‘rayotganim yo‘q, kasallarni yuborib turadigan odamni nima deb atashadi deyapman. — ?.. — Uni makler deyishadi, makler… Tibbiyot makleri… Sen o‘zing poliklinika mijozini xususiy vrachga yuborolmaysanku! Sizlarni xorijda shunga ham o‘rgatishmagan ekanda. Hay mayli, endi ayt-chi, hamkasblarning xayrixohligi deganda nimani tushunasan o‘zi? — O‘zaro yordami demoqchimisiz? — Bilmas ekansan, mayli, o‘zim tushuntira qolay. Aytaylik, huzuringga bir odam bavosiridan shikoyat qilib keldi…Sen uni tekshirib, ayollar kasali bo‘yicha mutaxassis bo‘lgan tanishingga yuborasan… — Axir u odam bavosir bilan kasallangan-ku, nega endi uni ginekologga yuborish kerak? — Sening tanishing pul ishlab oladi va kasalni tish do‘xtiri bo‘lgan tanishiga yuboradi. — Axir… — Tish do‘xtiri uni teri kasalliklari vrachiga yuboradi, u esa rentgenologga, rentgenolog esa ko‘z do‘xtiriga…Oxir-oqibat uni nevropatologga yuborish lozim bo‘ladi. Bu vaqtga kelib bemorning asabi batamom ishdan chiqadi…Mabodo ajali yetmagan bo‘lsa o‘zi tuzalib ketadi, aks holda kasalidan xalos bo‘ladi. O‘limidan keyin u yana tibbiyot xodimlari — patologoanatomning qo‘liga tushadi. Mana endi ayt-chi, nom chiqarib, mashhur bo‘lish uchun nima qilishing kerak? — Men kasallarni shunday davolaymanki, o‘z ustimda shunday ishlaymanki… — Xix… Menga qara, sen gazetaga shunday e’lon berasan: «Kambag‘al kasallar qabul qilinadi. Qabul har kuni tushdan keyin.» Kasallar kela boshlaganda sen faqat dushanba va payshanba kunlari qabul qiladigan bo‘lasan. Keyinchalik haftada bir marta, so‘ngra oyda bir marta qabul qilishga o‘tasan… Mijozlar ko‘payib ketganda sen tekin qabulni bekor qilasan. Ayni chog‘da to‘lovlar narxini oshirib boraverasan, odamlar seni davolashning qandaydir bir mo‘jizaviy sir-asrorini bilsa kerakki, xizmati qimmatlashyapti deb o‘ylashadi. Hamma kasallar senga oqib kelaverishadi… Keyinchalik gazetalarda bemorlar nomidan minnatdorchilik izhor etilgan maktublarni ham chop etib turish kerak. Mabodo huzuringga mijoz kelsa va sen uni tekshirib, hech qanday kasal topolmasang, nima qilasan? — Men unga sog‘lom ekanligini aytardim. — Voh-voh!..Bunaqa vrachni birinchi ko‘rishim.!..Axir hayotda kasal bo‘lmagan odam bor ekanmi? Agar mijozing butunlay soppa-sog‘ bo‘lsa ham unga aji-buji yozuv bilan aptekaga yo‘llanma yozib berasan…Nima bo‘lgan taqdirda ham psixiatr undan bir ishkal topmay qo‘ymaydi… Ha-a, yo‘llanmani qanchalik birovning tishi o‘tmaydigan qilib yozsang-da, to‘lanishi lozim bo‘lgan haqni aniq-ravshan qilib yozgin… Keyin, gazetalarga tez-tez turli mavzularda maqolalar yozib turish lozim. Masalan, «Turar joylarni ijaraga olish xususida», «O‘rmonlar muhofazasi», «Haydovchilarning axloqiy qiyofasi», «Odamlar nima uchun aqldan ozadilar» va hokazo. Muhimi – noming tez-tez matbuotda ko‘rinib tursin va hamma seni «Qaranglar-a, u qanchalar aqlli!» deb o‘ylashsin. Bu ishlarni shunday qilish kerakki, kelajakda shahar hokimi yoki gubernator va hatto ministr lavozimigacha erishish mumkin bo‘lsin. Ha, sening bu yerda vrach sifatida non topib ishlay olmasliging oyday ravshan!. Yaxshisi o‘sha kelgan joyingga – Germaniyagami yoki Amerikagami qaytib keta qol!.. — Rahmat, salomat bo‘ling… — Sen ham salomat bo‘l, o‘g‘lim, yana kasal-pasal bo‘lib yurma!

Shodmon OTABEK
tarjimasi.

МЕРОСХЎРЛАР ДИҚҚАТИГА!

Андижон шаҳри, 2 тор Бедил кўчаси, 33-уйда яшаб, 2012 йил 20 июнь куни вафот этган марҳум **БАЙМАТОВ ТУХТАСИН**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Бобур шохкўчаси, 30/А-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус И.А.Узакбаев нотариал идорасига,

Хонобод шаҳар, Хонобод кўчаси, 123-уй, 44-квартирада яшаб, 2025 йил 26 февраль куни вафот этган марҳум **KOVALEVA SVETLANA ROMANOVNA**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Хонобод шаҳри, Обод кўчаси, 134-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Н.Зулунов нотариал идорасига,

Булоқбоши тумани, “Сарбонтепа” МФЙ, Кўктерак кўчасида доимий яшаб, 2025 йил 19 февраль куни вафот этган, марҳум **ТУГАЛОВ КОМИЛ АНОРҚУЛОВИЧ**нинг мулкларига нисбатан мерос иши очилган. Шу сабабли унинг меросхўрлари марҳумдан қолган мулклардан мерос тариқасида ўзларига ўтиши мумкин бўлган ҳиссаларни расмийлаштириш ёки воз кечиши ҳақида ёзма ариза бериш учун 1 (бир) ой муддат ичида шахсини тасдиқловчи ҳужжатлар билан Булоқбоши туманида (Булоқбоши тумани, Мустақиллик кўчаси, нотариус Қаҳрамонов Маҳмуджон) хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариал идорага,

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 1993 йил 14 сентябрь куни вафот этган марҳум **ҚОРАБОЕВА ЁҚУТХОН,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2023 йил 10 февраль куни вафот этган марҳум **BOLTABOYEVA XABIBAXON SHARIFOVNA,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2002 йил 30 октябрь куни вафот этган марҳум **ТОҒАЕВ РАВШАНБЕК БУЛЫШЕВИЧ**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Жалақудуқ тумани, Ўзбекистон кўчаси, 57-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ш.Рахимов нотариал идорасига,

Избоскан тумани, Жонобод МФЙ, Устозлар кўчасидаги уйда яшаб, 2024 йил 6 ноябрь куни вафот этган марҳум **ИСРОИЛОВА ГУЛЖАХОН,**

Избоскан тумани, Урганжи МФЙ, Маданият шохкўчасидаги уйда яшаб, 2018 йил 26 май куни вафот этган марҳум **УМУРЗОКОВ БАХРОМЖОН ХУДАЙБЕРДИЕВИЧ**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Избоскан тумани, Нақшбанд кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус С.К.Ботиров нотариал идорасига,

Марҳамат тумани, Дўстлик МФЙ, Бадавлат кўчасидаги уйда яшаб, 2024 йил 19 декабрь куни вафот этган марҳум **ХОЛМИРЗАЕВ МИРЗАОЛИМ СОБИРОВИЧ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Марҳамат тумани, Бобур шохкўчаси, 38-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Т.Усмонов нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Янги ҳаёт МФЙда яшаб, 2022 йил 5 февралда вафот этган **МИРЗАЕВ УЛУҒБЕК ЖАМОЛДИНОВИЧ,**

Шаҳрихон тумани, Қўрғонча МФЙда яшаб, 2023 йил 3 июлда вафот этган **НАБИЕВА УЛМАСХОН**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Р.Ёдгоров кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Ахмаджонов нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Дўрман МФЙда яшаб, 2021 йил 9 июлда вафот этган **YULDASHEV RUZIBAY KADIRALIYEVICH**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Р.Ёдгоров кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Маматов нотариал идорасига,

Бўстон туманида яшаб, 2023 йил 20 февралда вафот этган **ABDIYEVA RAYLA**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Бўстон тумани, Тараққиёт кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус М.Мўйдинов нотариал идорасига мурожаат қилишлари сўралади.

MILLATLARARO TOTUVLIK

O‘ZBEK – QIRG‘IZ DO‘STLIGI

Mamlakatimizda istiqomat qilayotgan turli millat va elatlar o‘rtasida o‘zaro hurmat, do‘stlik, hamjihatlikka asoslangan munosabatlar shakllangan. Eng asosiysi, yurtimizdagi barcha millat va elatlarning tengligi, o‘zaro do‘stligi huquqiy jihatdan kafolatlangan.

Andijon viloyatida ham turli millat va elat vakillari ahil inoqlikda yashab kelmoqda. O‘zbekiston fuqarosi sifatida ular amaldagi barcha huquq va erkinliklardan to‘laqonli foydalanmoqda. Ayniqsa, ularning o‘z ona tillarini o‘rganishlari, milliy an’ana va urf-odatlarini rivojlantirishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Buni viloyatda faoliyat yuritayotgan respublika Qirg‘iz, Rus, Uyg‘ur, Koreys hamda Arman milliy madaniy markazlari bo‘limlari faoliyati misolida ko‘rish mumkin.

O‘zbekiston Qirg‘iz milliy madaniy markazi Andijon viloyati bo‘limi 1996 yilda tashkil etilgan. Bugun Andijon viloyatida 150 mingdan ziyod qirg‘iz millati vakillari yashaydi. Ular Jalaquduq, Xo‘jaobod, Marhamat, Qo‘rg‘ontepa tumanlari hamda Xonobod shahrida nisbatan uyushgan holda istiqomat qiladi. Viloyatda ularning milliy an’ana va urf-odatlarini davom ettirish, o‘z ona tilida ta’lim olishi uchun barcha sharoit va imkoniyatlar yaratilgan.

– Markazimiz tomonidan O‘zbekistonda yashayotgan turli xalq, millat va elatlarning o‘zaro do‘stligi va totuvligini mustahkamlash, yurtni obod qilish, tinchligini asrashga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda, – deydi O‘zbekiston Qirg‘iz milliy madaniy markazi Andijon viloyati bo‘limi rahbari Obidjon Nosirov.

Darhaqiqat, milliy madaniy markaz tashabbusi bilan viloyatning Andijon, Xonobod shaharlari, Qo‘rg‘ontepa, Jalaquduq, Xo‘jaobod, Marhamat tumanlarida “O‘zbekiston – umumiy uyimiz”, “Qudratimiz birlik va hamjihatlikda”, “O‘zbekiston – yagona vatanim”, “Tug‘ilgan yer – Vatandir”, “Ona yagona, Vatan bittadir”, “Ahil va inoqligimiz – do‘stligimiz poydevori”, “Shu aziz yurt – barchamizniki!” kabi mavzularda do‘stlik festivallari, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, uchrashuv va muloqotlar o‘tkazib kelinmoqda. Shuningdek, joylarda qirg‘iz milliy bayramlariga bag‘ishlangan tadbirlar ham doimiy ravishda o‘tkaziladi.

– Keyingi yillarda yurtimizda yashayotgan qirg‘iz millati vakillariga o‘z ona tilida bilim olishi uchun keng imkoniyatlar yaratib berilayotgani bizni behad quvontiradi, – deydi Andijon davlat pedagogika instituti filologiya fakulteti qirg‘iz tili ta’limi kafedrasi mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent Mahbubaxon Temirova. – Institutimizda qirg‘iz tili ta’limi kafedrasi tasarrufida uchta - qirg‘iz tili va adabiyoti, maktabgacha ta’lim hamda boshlang‘ich ta’limi yo‘nalishlarida mutaxassislar tayyorlanmoqda. Bugungi kunda ushbu yo‘nalishlarda 60 nafarga yaqin talaba tahsil olmoqda.

Bundan tashqari, ayni kunda viloyatdagi bitta davlat ixtisoslashgan umumta’lim maktabida ta’lim to‘la qirg‘iz tilida olib boriladi, bundan tashqari, 21 ta maktabda qirg‘iz va o‘zbek-qirg‘iz tillarida o‘qiydigan sinflar bor. Ushbu maktablar qirg‘iz tilidagi darsliklar bilan ta’minlangan. Ta’lim sifati va samaradorligini oshirish bo‘yicha o‘qituvchilarga zarur uslubiy yordamlar ko‘rsatilmoqda. Shu bilan birga maktab kutubxonalarini qirg‘iz tilidagi adabiyotlar bilan boyitish maqsadida davlat hisobidan o‘zbek adabiyotining taniqli namoyandalari G‘ofur G‘ulom, Oybek, Abdulla Qodiriy, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, O‘tkir Hoshimov, Muhammad Yusuf kabi yozuvchi va shoirlarning asarlari qirg‘iz tiliga tarjima qilinib, kitob etib chop etilgan. Ana shu kitoblar yuqoridagi maktablarga yetkazilgan.

Markaz tashabbusi bilan viloyatda yashab, ijod qilayotgan shoir va yozuvchilar bilan uchrashuvlarda millatlararo do‘stlik, yurtga sadoqat mavzulari targ‘ib etilmoqda. Andijonlik ijodkorlar, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zolari Bahodir Andijoniy, Xurshida Vahobjon qizi, Habib Siddiq singari ijodkorlarning qator asarlari qirg‘iz tiliga tarjima qilingan. Markaz tomonidan ijodiy uyushmalarning viloyat bo‘limlari, Maktab va maktabgacha ta’lim tuman, shahar bo‘limlari bilan hamkorlikda umumta’lim maktablarida qirg‘iz yozuvchi va shoirlari, xususan, buyuk adib va jamoat arbobi Chingiz Aytmatov hayoti va ijodini o‘rganish, targ‘ib etishga qaratilgan adabiy tadbirlar o‘tkazib kelinadi.

Qirg‘iz milliy madaniy markazi viloyat bo‘limi nafaqat o‘zbek va qirg‘iz, umuman, millatlararo do‘stlikni mustahkamlash, balki qo‘shni Qirg‘iziston Respublikasi bilan madaniy, ma’rifiy, ta’lim sohalaridagi hamkorlik aloqalarini mustahkamlash ishlariga ham salmoqli hissa qo‘shmoqda. Jumladan, bo‘lim tashabbusi bilan qirg‘izistonlik olimlar, madaniyat, ma’naviyat sohalari vakillari ishtirokida



viloyatda yashovchi qirg‘izlar bilan uchrashuvlar, muloqot va davra suhbatlari doimiy ravishda o‘tkazib kelinadi.

Jumladan, O‘sh davlat universitetining bir guruh olimlari viloyatdagi qirg‘iz tilida o‘qitiladigan maktablarda bo‘lib, o‘quvchi yoshlar, pedagoglar bilan uchrashuv va muloqotlar o‘tkazdi. Mehmonlar maktablardagi shart-sharoitlar, yaratilgan imkoniyatlarga yuqori baho berdi. Ayniqsa, O‘zbekistonda boshqa millat vakillariga ko‘rsatilayotgan e’tibor alohida e’tirof etildi.

Qirg‘iziston Respublikasi “Til” jamiyati rahbari Raimjon Qurbonov Qo‘rg‘ontepa tumanidagi 30- davlat ixtisoslashtirilgan maktabi, Jalaquduq tumanidagi 15-umumta’lim maktabi o‘quvchi va o‘qituvchilari bilan uchrashuvlar o‘tkazdi.

– Qirg‘iziston Respublikasida ma’naviy-ma’rifiy ishlarga bosh bo‘lgan “Til” jamiyati rahbari maktabimiz faoliyati, o‘quv jarayonlari bilan tanishib, ochig‘i, maskanimizda yaratilgan sharoitlarga havasi keldi, – deydi Jalaquduq tumanidagi 15- umumta’lim maktabi direktori Gulmira Qodirova. – Haqiqatdan ham viloyatning chekka hududlaridan birida joylashgan maktabimizda qirg‘izlarning o‘z ona tilida bilim olishi, o‘qib-o‘rganishi uchun zarur barcha sharoitlar yaratilgan.

Shuningdek, markaz tashabbusi bilan 27 nafar andijonlik ayollar Jalolobod viloyatidagi dam olish oromgohida dam olib qaytdi. U yerda qirg‘izistonlik ayollar bilan uchrashuvlar o‘tkazildi. Uchrashuvlarda turli yo‘nalishlarda o‘zaro hamkorlikni, xalqlarimiz o‘rtasidagi do‘stlikni mustahkamlash xususida dildan suhbatlar o‘tkazildi. Chegara hududlarida yashovchi o‘zbek va qirg‘iz ayollarining ana shunday uchrashuv-muloqoti Andijon shahrida ham bo‘lib o‘tdi.

Viloyatda yashayotgan barcha millat vakillari qatori qirg‘iz xalqi vakillari ham yurtimiz rivoji, taraqqiyoti yo‘lida mehnat qilib kelmoqda. Ayniqsa, Markaz faollari – Qo‘rg‘ontepa tumanidagi 30- davlat ixtisoslashgan maktabi direktori Talaybek Qoraboyev, Jalaquduq tumanidagi 15-umumta’lim maktabi direktori Gulmira Qodirova, Jalaquduq tumanidagi “Oxunboboyev” MFY Xotin-qizlar faoli Shohista Norqo‘ziyeva, Xo‘jaobod tumanidagi 10-umumta’lim maktabi o‘qituvchisi, “Do‘stlik” ordeni sohibasi Oysuluv To‘ychiboyeva, mehnat faxriylari - qo‘rg‘ontepalik Kelsinoy So‘pibekova, Xonobod shahrida yashovchi Anorxon Normatova, xo‘jaobodlik Davlatxon Mamatbekova, marhamatlik Kamoliddin Yormatov singari insonlarning mehnatlari alohida e’tirofga loyiq.

– Millatim qirg‘iz, lekin O‘zbekiston fuqarosiman, – deydi jalaquduqlik mehnat faxriysi Safarali Abdurahimov. – Yurtimizda olib borilayotgan odilona millatlararo siyosat tufayli mamlakatimizda istiqomat qilayotgan turli millat va elatlar o‘rtasida o‘zaro hurmat, do‘stlik, hamjihatlikka asoslangan munosabatlar shakllangan. Yurtimizda millatlararo totuvlik, insonni ulug‘lash, mehnatini qadrlash masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Men ancha yillardan buyon nafaqada bo‘lsam ham faxriy jurnalist sifatida iyun oyida o‘tkazilgan Matbuot va ommaviy axborot vositalari kuni munosabati bilan tashkil etilgan bayram tadbirida ishtirok etdim, viloyat hokimining faxriy yorlig‘i bilan taqdirlandim, e’tibordan ko‘nglim tog‘day ko‘tarildi. Ochig‘i, O‘zbekistonda yashayotganligim, shu yurt fuqarosi ekanligimdan qalbim faxrga to‘ladi.

Bir so‘z bilan aytganda, turli millat, elat vakillari emin-erkin yashab kelayotgan O‘zbekistonimizda millatlararo do‘stlik aslo zavol topmaydi. Chunki, ular ona Vatanimiz tinchligi, ravnaqi yo‘lida bir jon, bir tan bo‘lib yashamoqda. O‘zbek va qirg‘iz xalqlari do‘stligi esa abadiydir.

Faxriddin UBAYDULLAYEV,
Zuhriddin UMRZOQOV, (surat),
O‘zA.

ADOLAT MEZONI

MUASSIS: «Nurafshon gulshani» mas’uliyati cheklangan jamiyati

Muharrir: M.ORTIQOVA

Tahririyat manzili: Andijon shahri, Navoiy shohko‘chasi, 71-uy. Telegram: (+998 99) 995-19-66 E-mail: and_mezoni@inbox.uz

Gazeta Andijon viloyati matbuot va axborot boshqarmasida 2010-yil 16-martda 04-040 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr ko‘rsatkichi - 2536

Gazeta tahrirriyat kompyuter bo‘limida terildi va sahifalandi. «ZAKOVAT» nashriyot uyi MCHJda original maket asosida chop etildi. Chop etishga topshirish vaqti 08.08.2025-yil, soat 11.00. Chop etishga topshirildi 08.08.2025-yil, soat 14.00. Korxona manzili: Kosonsoy shahri, Chorbog‘ ko‘chasi, 17-uy. Hajmi 2 bosma taboq. Qog‘oz bichimi A-3. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma № . 188 nusxada bosildi.

Navbatchi: M.Mamatqulov. Dizayner: Sirojiddin Mamadali o‘g‘li